

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi


2025- yil yanvar-may oylari uchun

- I. Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2025- yilning 1 iyun holatiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2 486 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 744 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 29,9 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 302 tasi (12,2 %) boshqa nonmetal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 218 tasi (8,8 %) kiyim ishlab chiqarishga, 195 tasi (7,9 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 166 tasi (6,7 %) mebel ishlab chiqarishga to‘g‘ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1 iyun holatiga ko‘ra





II. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari shahar va tumanlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-may oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 9 962,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 101,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9 962,9	101,4
Nukus sh.	3 008,6	90,2
Amudaryo tumani	676,5	116,2
Beruniy tumani	398,3	109,4
Bo'zatov tumani	26,4	112,3
Qorao'zak tumani	381,5	112,2
Kegeyli tumani	184,5	103,5
Qo'ng'iro't tumani	599,0	102,5
Qanliko'l tumani	235,9	102,1
Mo'ynoq tumani	215,0	112,4
Nukus tumani	120,8	108,7
Taxiatosh tumani	1 394,9	95,4
Taxtako'pir tumani	121,8	100,5
To'rtko'l tumani	435,6	103,2
Xo'jayli tumani	288,7	104,4
Chimboy tumani	217,7	108,6
Shumanay tumani	138,7	109,4
Ellikqal'a tumani	300,0	101,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (8 711,2 ming so'm), Taxiatosh tumanida (18 007,9 ming so'm), Qorao'zak tumanida (6 975,4 ming so'm), Mo'ynoq tumanida (6 339,5 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (4 902,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati 100,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Amudaryo tumanida (114,3 %), Bo‘zatov tumanida (112,4 %), Qorao‘zak tumanida (111,6 %) qayd etilib respublika ko‘rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-may oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 8 451,4 mlrd so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (84,8 %) ni tashkil etgan holda Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 129,9 mlrd so‘m (1,3 %), Elektr gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda 1 334,2 mlrd so‘m (13,4 %) hamda Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 47,4 mlrd so‘m (0,5 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025- yilning yanvar-may oylarida





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-may oylarida respublikada 20,8 ming tonna ip kalava (2024-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 2,7 marta ko'paygan), 33,8 ming tonna bug'doy uni (56,0 % ga ko'paygan), 436,3 ming tonna portlandsement (21,1 % ga ko'paygan), 99,0 ming tonna dinatriy karbonati (2,4 % ga ko'paygan), 6,7 ming tonna paxta tolasi (67,8 % ga kamaygan), 1278,4 ming l 100% li spirt (7,3 % ga kamaygan), 3,1 ming tonna o'simlik yog'i (28,0 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-may*	2024 yil yanvar-may*	2025 yil yanvar-may
Portlandsement, tonna	80 739,2	360 284,0	436 289,9
Paxta tolasi, tonna	14 310,4	20 701,3	6 659,0
Tozalangan o'simlik yog'i, tonna	4 310,2	4 284,0	3 085,6
Bug'doy uni, tonna	26 972,2	21 698,4	33 840,0
O'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar, tonna	1 099,0	2 914,0	1 607,0
Aroq, ming l 100% li spirt	1 358,0	1 378,7	1 278,4
Ip kalava, tonna	8 442,5	7 753,0	20 806,8
Tabiiy gaz, mln kub.m	443,7	388,4	332,0
Gaz kondensati, ming t	26,1	18,6	18,0
Dinatriy karbonati, ming t	88,9	96,6	99,0

*2023-2024 yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,2 % (2024- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 31,9 % (2024- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024- yilning yanvar-may oylarida 0,03 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 36,7 % ni (47,3 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 9,9 % ni (6,6 %), quyi texnologiyali 53,3 % (46,1 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-may oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 81,5 % ni, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish esa 79,4 % ni tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may*	2024- yil yanvar-may*	2025- yil yanvar-may
Elektrenergiya, mln.kvt.s	2 180,9	2 349,0	1 914,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	24,7	24,7	19,6
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	60 830,2	80 483,2	85 246,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlarda 15,4 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 6,6 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 10,6 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may*	2024- yil yanvar-may*	2025- yil yanvar-may
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	3 489,9	3 500,9	3 731,8
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	3 951,6	5 057,3	5 834,8
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	26 894,6	29 882,6	33 047,5

*2023-2024 yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 641,2 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,5 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 24,7 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste‘moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog‘i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo‘yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni mahsulot turlari bo‘yicha shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O‘zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo‘yicha statistika ma‘lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma‘lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma‘lumotlari; e) uy xo‘jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslariga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Kurbanova
61 222-75-87 (9510)

Manzil:
230103, Nukus,
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-22-45
